

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi

“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ

Boshqaruv raisi

Sh.P. Alimov

2023-yil “11” 09



**Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi boshlig‘i
LAVOZIM YO‘RIQNOMASI**

1. Umumiy qoidalar

1.1. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘lim boshlig‘i (keyingi o‘rinlarda – Komplaens-nazorat bo‘lim boshlig‘i) Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi bilan kelishilgan xolda, Jamiyat boshqaruv raisi buyrug‘i bilan ishga qabul qilinadi va ozod etiladi.

1.2. Komplaens-nazorat bo‘lim boshlig‘i to‘g‘ridan to‘g‘ri “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ (keyingi o‘rinlarda-Jamiyat), boshqaruv raisiga bo‘ysinadi.

1.3. Komplaens-nazorat bo‘limi boshlig‘i mehnat ta‘tili, mehnatga layoqatsizlik va uzoq muddatli xizmat safarlarida bo‘lgan davrlarida bo‘lim boshlig‘i lavozimi mazkur bo‘lim bosh mutaxassisi zimmasiga Jamiyat boshqaruv raisi buyrug‘i bilan yuklanadi.

1.4. Bo‘lim boshlig‘i lavozimiga oliy ma‘lumotli, mas‘ullik lavozimlarida (yuridik, iqtisodiyot, xodimlar va h.k bo‘lim boshliqlari) 3 yil ish tajribasiga ega bo‘lgan shaxs tayinlanadi.

1.5. Komplaens-nazorat boshlig‘i bilishi (xabardor bo‘lishi) kerak:

- O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son “Davlat organlari va Jamiyatlarning faoliyati ochiqqligini ta‘minlash, shuningdek jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni;

- ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurash menejmenti tizimi – Talablar va ularni qo‘llashga doir tavsiyalar” xalqaro standarti talablari va tavsiyalari.

- korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘yicha Aktsiyadorlik jamiyati Nizom, Uslubiyot, Yo‘riqnoma va Reglament hujjatlari;

- ishlab chiqarish-xo‘jalik va moliyaviy-iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi Qonunchilik va me‘yoriy-huquqiy hujjatlar;

- xaridlarni amalga oshirish bo'yicha Qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar;
 - Jamiyatning rivojlanish strategiyasi va istiqbollari;
 - xodimlar bilan ishlash bo'yicha Qonunchilik, Mehnat Kodeksi, Jamoa shartnomasi va shular asosida me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;
 - statistika hisobini tashkil etish, reja-hisob hujjatlari, hisobotlarni tuzish muddatlari va tartibi;
 - Jamiyat va uning tarkibiy bo'linmalarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi faoliyati, ko'rsatkichlarini tahlil qilish usullari;
 - O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligining asosiy qoidalari.
- 1.6. Bo'lim boshlig'i o'z faoliyatida quyidagilarga muvofiq ish yuritadi:
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
 - O'zbekiston Respublikasi qonunlari;
 - O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi;
 - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
 - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari;
 - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari;
 - "O'zbek geologiya qidiruv" AJ Ustavi;
 - "O'zbek geologiya qidiruv" AJ qarorlari va farmoyishlari;
 - "O'zbek geologiya qidiruv" AJ ichki mehnat tartib qoidalari;
 - "O'zbek geologiya qidiruv" AJ jamoa shartnomasi;
 - Kuzatuv kengashining qarorlari;
 - Mazkur lavozim yo'riqnomasi;
 - Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi qarorlari va farmoyishlari;
 - boshqa normativ-huquqiy hujjatlar.

2. Lavozimning asosiy funksiyalari:

2.1. Komplaens-nazorat bo'limi boshlig'i o'ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi Funksiyalarni amalga oshiradi:

a). Jamiyatning korrupsiyaga qarshi ichki nazoratini takomillashtirish sohasida:

- Jamiyat tizimida korrupsiya yo'nalishida ichki nazorat bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan idoraviy hujjatlar loyihalarini tegishli bo'limlar bilan hamkorlikda ishlab chiqadi;

- Jamiyatning faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlarda aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bartaraf qilish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;

- Jamiyat Boshqarmalari va tarkibiy bo'linmalari tomonidan ishlab chiqiladigan korrupsiyani oldini olishga karatilgan chora-tadbirlar loyihalarini Jamiyat tizimida korrupsiyaga qarshi nazorat siyosatiga mosligi, maqbulligi va dolzarbligi nuqtai nazardan baholaydi va xulosalar beradi;

- Jamiyat tizimidagi korrupsiyaga qarshi nazorat faoliyatini yanada samarali tashkil etish va takomillashtirishga qaratilgan takliflarni kiritib boradi.

b). Jamiyatda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni proflaktika qilish va ularga qarshi kurashish sohasi:

- Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholaydi, ularning natijalari bo'yicha aniqlangan (jumladan mavxum) xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqadi va Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxatini yaratadi;

- maxsus aloqa kanallari orqali Jamiyat xodimlariga ta'allukli korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbuzarlik xaqida kelib tushadigan murojaatlarni tahlil qiladi. Jamiyat rahbari ko'rsatmasiga binoan tegishli bo'limlar (yuridik, kadrlar, murojaatlar) bilan hamkorlikda ularni belgilangan tartibda ko'rib chiqilishida qatnashadi;

- Jamiyatda yuritiladigan xizmat tekshiruvlari reestiri yoki o'tkazilgan xizmat tekshiruvlarini ro'yxatga oladigan boshqa tegishli hujjatda korrupsiya faktlariga doir xizmat tekshiruvlari bo'yicha ma'lumotlarning to'g'ri yoki to'liq aks ettirib borilishini nazorat qiladi;

- davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvini tahlil qilishda va Jamiyat bilan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlari bundan mustasno) kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxslarning ishonchliligini tekshirish jarayonida ishtirok etadi;

- Jamiyat xodimlariga korrupsiyaga qarshi masalalar bo'yicha tushuntirish va tavsiyalar beradi, korrupsiya faktlar haqida xabar berishga mo'ljallangan maxsus axborot aloqa kanallarining faoliyat natijalarini tahlil qiladi va tahliliy materiallarni Jamiyat rahbariga yetkazadi;

- Jamiyat faoliyatidagi korrupsiyaviy holatlarni va xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida aholi va xodimlar orasida so'rovlar o'tkazadi;

- korrupsiyaga qarshi siyosatni amalga oshirishga oid talab va normalarning buzilishi masalalari bo'yicha intizomiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarga jazo choralarining mutanosibli va yetarliligini nazorat qiladi;

- korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Jamiyatda korrupsiya faktlari yuzasidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari natijalari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qiladi;

v). Jamiyatda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini samarali ishlashini ta'minlash sohasida:

- korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha davlat dasturlarida Jamiyatga yuklatilgan vazifalar ijrosini monitoring qiladi va nazoratini amalga oshiradi;

- Jamiyat tizimida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimining ISO37001:2016 Korrupsiyaga qarshi xalqaro standarti talablariga mosligini ta'minlaydi;

- Jamiyat xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv rejalarining korrupsiyaga qarshi normalarga oid qismini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

- Jamiyat xodimlari, shu jumladan korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlardagi xodimlar uchun ijtimoiy tarmoklardagi, ochik

ma'lumotlar asosida korrupsiyani oldini olish bo'yicha targ'ibot materiallarnin ishlab chiqadi va xodimlar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibot tadbirlarida ishtirok etadi;

- o'quv rejaga muvofiq Jamiyatning barcha xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi ichki nazorat treninglarning o'tkazilishi, ularda xodimlarning ishtirok etishini nazorat qiladi;

- Jamiyatning rasmiy veb-saytidagi Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi, hamda ijtimoiy tarmoqlaridagi saxifalariga joylashtirilgan ma'lumotlarni yangilab borilishini ta'minlaydi;

- Jamiyat xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va Jamiyatning korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qiladi;

- Jamiyatdagi aniqlangan korrupsiyaviy xatti-harakatlar bo'yicha xizmat tekshiruvlarini o'tkazish tashabbusini ilgari suradi va unda ishtirok etadi;

- odob-axloq komissiyalari tomonidan manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha qabul qilingan qarorlarning xolisligi va maqulligini o'rganib boradi;

- amalga oshirilgan monitoring, xizmat tekshiruvlari va nazorat tadbirlari natijalari bo'yicha korrupsiyaga qarshi nazorat tizimini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi;

- Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi siyosatni amalga oshirishga ma'sul tuzulma(shaxs)lar bilan hamkorlikda korrupsiyaga qarshi nazorat bo'yicha ishlarni tashkil etish va xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan konferentsiyalar, uchrashuvlar, seminarlar, tanlovlar va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

g). Korrupsiyaga qarshi faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish:

- Korrupsiyaviy xatti-harakatlarni bartaraf qilish yoki korrupsiyaviy jinoyatlarni tergov qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda huquqini muxofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qiladi.

Komplaens-nazorat bo'limi boshlig'i qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa Funksiyalarni ham amalga oshiradi.

3. Komplaens-nazorat bo'limi boshlig'ining huquq va majburiyatlari

3.1. Komplaens-nazorat bo'limi boshlig'i o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi majburiyatlarga ega:

- Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan yuklatilgan Funksiyalarni zarur darajada va samarali bajarish;

- qonunchilik hujjatlari talablariga qat'iy rioya qilish va o'z vakolat doirasidan chetga chiqmaslik;

- Jamiyatda jinoyat alomatlari, xususan korrupsiya holatlari aniqlanganligi to'g'risida zudlik bilan to'g'ridan-to'g'ri yuqori turuvchi organ va boshqa huquqni muxofaza qiluvchi organlarga xabar berish;

- Jamiyatning korrupsiyaga qarshi siyosati, odob-axloq qoidalarining korrupsiyaga oid qismining buzilganligi xolati yuzasidan Jamiyat boshqaruv raisiga ma'lumotnoma kiritish;

- har chorakda, keyingi chorak birinchi oyining birinchi o'n kunligida korrupsiyaga qarshi siyosat borasidagi amalga oshirilgan ishlar va chora-tadbirlar to'g'risida choraklik hisobotlarni Jamiyat boshqaruv raisi va Kuzatuv kengashiga taqdim etish;

3.2. Komplaens-nazorat bo'limi boshlig'i o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

- o'zi faoliyat yuritayotgan Jamiyat xodimlaridan ularning vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan tahliliy materiallarni, xulosalarni, statistik va boshqa ma'lumotlarni olish;

- xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida Jamiyat xodimlaridan zarur yordam so'rash va olish;

- Jamiyat xodimlari faoliyatida aniqlangan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o'tkazish, hujjatlarni talab qilish, xodimlardan yozma tushuntirishlar olish;

- Jamiyat boshqaruv raisiga korrupsiyaga qarshi nazorat tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

- o'z faoliyati doirasida Jamiyat xodimlariga yozma ko'rsatmalar, topshiriq xatlari va tavsiyalar berish;

- Jamiyatning korrupsiyaga oid majlislarida ishtirok etish;

- Komplaens-nazorat bo'limi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4. Javobgarlik

4.1 Komplaens-nazorat bo'limi boshlig'i quyidagilar uchun javobgar hisoblanadi:

- mazkur mansab yo'riqnomasidagi vazifalarni lozim daraja bajarmaganligi uchun;

- o'zining faoliyati jarayonida yo'l qo'ygan huquqbuzarliklari uchun;

- ish beruvchiga moddiy zarar yetkazganligi uchun;

- vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha o'z vaqtida qaror qabul qilinmaganligi uchun;

- yuqori organlar va rahbariyatining buyruqlari, ko'rsatmalarini bajarilmagani uchun;

- maxfiylik va axborot xavfsizligi rejimining talablari, davlat sirlarini, tijorat va boshqa turdagi sirlarni tashkil etuvchi va tarqatilishi cheklangan ma'lumotlarni oshkor etganligi uchun;


- shuningdek bunday ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjatlar va axborot tashuvchilar bilan ishlashning belgilangan tartibini buzganlik uchun;

- ichki mehnat tartib qoidalarini buzganlik uchun;
- mehnat muxofazasi va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etmaganligi
uchun.

Ishlab chiqildi:

Inson resurslarini boshqarish bo'limi boshlig'i  **F.A.Umarov**

Tanishtirildi:

Tt/r	F.I.Sh.	Imzo	Sana
1	D. Gangaev		11.09.23